G'AZNACHILIK TIZIMIDA RISK LARNI ANIQLASH VA NAZORAT TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	1357
Xasanov Adiz Xusenovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR.....	1363
Beknazarov Behzod Baxtiyorovich	
IMPROVEMENT OF THE COMMERCIAL BANK PRIVATIZATION PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	1368
Djumaniyazov Islam Karimbayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SOHASI INVESTITSION VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI	1374
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	1378
Madaminov Bekzod Allayarovich	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA XAVF OMILLARI SHAROITIDA AGRAR BIZNESDA XARAJATLAR TAHLILI VA XATARLARNI BOSHQARISH.....	1383
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI	1387
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЛОГИСТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК	1392
Каримова Хулкар Рахманали кизи, Махмудуллоева Севинч Хабибулла кизи	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	1399
Norova Nozima Nabiyevena	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1406
Ahmedova Dilnoza Qalandar qizi	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING EKOLOGIK MUVOZANATINI SAQLASH ORQALI BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI (NAVOIY VILOYATI TAJRIBASI)	1411
Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
KORXONALARDA ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) HISOBOTLARINING AUDITINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEKANIZMLARI.....	1417
Xolikov Ravshan Anvar o'g'li	



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1420
Omonov Olim Murodullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	1424
Sharifi Abdul Fatah	
TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	1430
Sadikov Q.M.	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	1434
Kurbosheva Mohira Xafizovna	
MURAKKAB LOYIHALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	1439
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1442
Камолова Феруза Кахрамоновна	
O'ZBEKISTON HUDUDIIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YO'NALISHLARI.....	1448
Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich	
O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA INSTITUTIONAL ASOSLARI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1456
Ismailova Gulruh Faxriddinovna	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ПЕРСОНАЛОМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ЦИФРОВИЗАЦИЯ, УПРАВЛЕНИЕ ТАЛАНТАМИ И МОТИВАЦИЯ.....	1462
Абилов Эльман Худаверди оглы	
O'ZBEKISTON BANKLARINING AML TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT: STRATEGIK ZARURAT VA JORIY ETISH YO'LLARI.....	1468
Rashidov Avazbek Raximovich	
GLOBALASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TUG'ILISH KO'RSATKICHLARI STATISTIK TAHLILI.....	1475
Abduraxmanov Abduazim Djalaliddinovich	
BANK KREDITINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RESURLAR BILAN TA'MINLASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1483
Bo'tayev O'tkir Eshboevich	
TIJORAT BANKLARINI DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQARISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI CHUQURLASHTIRISH YO'LLARI.....	1489
Salamov Islom Tashkazakovich	
FRANCHAYZING ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI KORXONALAR MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORDA ILGARI SURISHDA MERCHANDAYZING DIZAYNI VA VIZUAL MARKETING YONDASHUVLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	1495
Xodjayev Anvar Rasulovich	
ISHLAB CHIQUARADIGAN SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH.....	1501
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZISHNING AXAMIYATI.....	1510
Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI.....	1516
Ibroximov Iloxjon Shavkatjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SAMARADORLIGI OMILLARI TAHLILI.....	1522
Maxmudova Maftunaxon Shavkatjon qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORIJIY KREDIT LINIYALARINI JALB ETISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING AMALDAGI HOLATI.....	1529
Aytiboev Nodirbek Rashid o'g'li	



AUDITDA MUHIMLIK CHEGARASI KO'RSATKICHINI ANIQLASH MUAMMOLARI.....	1534
Pirnazarova Juldiz Djamiljan qizi	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СФЕРЫ УСЛУГ В ЭКОНОМИКЕ СТРАН МИРА И УЗБЕКИСТАНА.....	1538
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI MUSTAHKAMLASHDA MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	1544
Imanova Umida Baxtiyrovna	
A COMPARATIVE ANALYSIS OF VOCATIONAL EDUCATION SYSTEMS IN SAUDI ARABIA AND UZBEKISTAN	1549
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
YO'LOVCHI TASHISHDA KICHIK TADBIRKORLIK SHAKLLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MODELLARI	1555
Aytieva Sevara Allaberdievna	
XIZMATLAR SEKTORIGA INVESTITSIYA JALB QILISHDA STRATEGIK TAMOYILLAR VA ULARNING IJTIMOIY-IQTISODIY NATIJALARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI.....	1561
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li, Nabiye G'ulom Abdusalomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA UNIVERSITETLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	1566
Boboxo'jayev Asliddin Muzaffarovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" GA O'TISH JARAYONINI MOLIYALASHTIRISH	1571
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
MAHALLA BOSHQARUVIDA OCHIQLIK VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI OSHIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	1575
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1581
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi, PhD

Annotatsiya: Maqola tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda banklarning investitsion faoliyatini samarali tashkil etish, mavjud metodologik yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularni zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish masalalari o'rganilgan. Xususan, investitsion jarayonlarni baholashda qo'llaniladigan ekonometrik va statistik usullar, risklarni boshqarish modellari hamda raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tijorat banklarining investitsion strategiyasini shakllantirishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi, investitsion portfelni optimallashtirish usullari va moliyaviy instrumentlardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro tajriba asosida banklarning investitsion faolligini oshirishda qo'llaniladigan ilg'or metodologik yondashuvlar o'rganilib, ularni milliy bank tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiya, investitsion faollik, metodologiya, zamonaviy yondashuv, ekonometrik tahlil, statistik usullar, risklarni boshqarish, investitsion portfel, optimallashtirish.

Аннотация: Статья посвящена вопросам совершенствования современной методологии повышения инвестиционной активности коммерческих банков. В исследовании рассматриваются вопросы эффективной организации инвестиционной деятельности банков, анализ существующих методологических подходов и их адаптация к современным экономическим условиям. В частности, подчеркивается важность эконометрических и статистических методов, используемых при оценке инвестиционных процессов, моделей управления рисками и внедрения цифровых технологий. Также анализируется система показателей, используемых при формировании инвестиционной стратегии коммерческих банков, методы оптимизации инвестиционного портфеля и эффективность использования финансовых инструментов. В исследовании изучаются передовые методологические подходы, используемые для повышения инвестиционной активности банков, на основе международного опыта и рассматриваются возможности их внедрения в национальной банковской системе.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиции, инвестиционная деятельность, методология, современный подход, эконометрический анализ, статистические методы, управление рисками, инвестиционный портфель, оптимизация.

Abstract: The article is devoted to the issues of improving the modern methodology for increasing the investment activity of commercial banks. The study studies the issues of effective organization of investment activities of banks, analysis of existing methodological approaches and their adaptation to modern economic conditions. In particular, the importance of econometric and statistical methods used in assessing investment processes, risk management models and the introduction of digital technologies is highlighted. Also, the system of indicators used in the formation of the investment strategy of commercial banks, methods for optimizing the investment portfolio and the effectiveness of using financial instruments are analyzed. The study studies advanced methodological approaches used to increase the investment activity of banks based on international experience and considers the possibilities of their implementation in the national banking system.

Keywords: commercial banks, investment, investment activity, methodology, modern approach, econometric analysis, statistical methods, risk management, investment portfolio, optimization.



KIRISH

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Global moliyaviy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi hamda investitsiya muhitining tobora murakkablashuvi banklardan investitsion faoliyatni samarali tashkil etishning yangi yondashuvlarini talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy metodologiya, avvalo, kompleks yondashuvga asoslanib, institutsional, moliyaviy, tashkiliy va texnologik omillarni o'zaro uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, "katta ma'lumotlar" (Big Data) va moliyaviy texnologiyalar (fintech)dan foydalanish investitsiya qarorlarini qabul qilishda aniqlik va tezkorlikni oshiradi. Shu bilan birga, risklarni boshqarishning ilg'or mexanizmlarini joriy etish va barqaror moliyalashtirish tamoyillariga amal qilish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, davlat tomonidan yaratilayotgan qulay investitsiya muhiti, normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada, zamonaviy metodologiyani takomillashtirish banklarning investitsion salohiyatini oshirish, real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish masalalari mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan turli nuqtayi nazarlardan o'rganilgan. Axmedov M. 2011-yilda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda investitsion faolligini oshirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, bank kapitalining yetariligi, risklarni boshqarish tizimi va aktivlar sifati investitsiya faoliyatining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil ekanligini asoslab bergan. Muallif investitsion faollikni oshirishda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni metodologik asos sifatida ko'rsatadi.

Berdiyarov B.T. 2020-yilda tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalarini chuqur tahlil qilib, banklarning investitsion operatsiyalarini kengaytirish uchun likvidlik boshqaruvi tizimini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. U likvidlik darajasi yuqori bo'lgan banklar uzoq muddatli investitsiya loyihalarida faolroq ishtirok etishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Bu esa investitsion faollikni oshirish metodologiyasida likvidlik ko'rsatkichlarini asosiy indikatorlardan biri sifatida qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Dodiyev F. 2014-yilda tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'llarini tahlil qilib, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirokni kengaytirish hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish muhimligini qayd etadi. Muallifning yondashuvi investitsion faoliyatni rivojlantirishda strategik boshqaruv va portfel optimallashtirish usullarining ahamiyatini ochib beradi.

Bo'riev J.P. 2023-yilda tijorat banklarining fond bozorida faolligini oshirish masalalarini o'rganib, banklarning kapital bozorida ishtirokini kengaytirish investitsion faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishini asoslaydi. U fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish, institutsional investorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va moliyaviy instrumentlar xilma-xilligini oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv investitsion faollikni baholashda bozor omillarini ham hisobga olish lozimligini ko'rsatadi.

Jumaev N.X. va Karimov N.G'. 2011-yilda investitsion faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirish masalalarini tahlil qilib, bank resurs bazasini kengaytirish, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini jalb etish hamda kredit-investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ularning tadqiqoti banklarning investitsion faoliyati ko'lamini oshirishda moliyalashtirish manbalarining barqarorligi muhim omil ekanligini isbotlaydi.

Jo'raev I. 2017-yilda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalarini o'rganib, banklarning fond bozorida operatsiyalarini rivojlantirish investitsion daromadlilikni oshirish va risklarni diversifikatsiya qilish imkonini berishini ta'kidlaydi. Muallif ushbu yo'nalishda tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish va bozor shaffofligini oshirish muhimligini qayd etadi.

Kamilova I.X. 2019-yilda tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini takomillashtirish masalalarini tahlil qilib, investitsion loyihalarni baholash mezonlarini takomillashtirish, kredit risklarini kamaytirish hamda monitoring tizimini kuchaytirish zarurligini asoslaydi. U investitsion kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish orqali banklarning real sektorni moliyalashtirishdagi rolini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ko'rib chiqilgan adabiyotlar tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish ko'p qirrali metodologik yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv banklarning moliyaviy barqarorligi, likvidligi, resurs bazasi, fond bozorida ishtiroki, investitsiya portfeli boshqaruvi va kreditlash mexanizmlarini kompleks tarzda takomillashtirishga asoslanadi. Bu esa zamonaviy metodologiyani ishlab chiqishda iqtisodiy, moliyaviy va institutsional omillarni birgalikda hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.




TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, Markaziy bank statistik ma'lumotlari va ochiq ma'lumotlar bazalaridan olingan ko'rsatkichlar asosida ma'lumotlar jamlandi. Ushbu ma'lumotlar panel shaklida tizimlashtirilib, korrelyatsion va ko'p omilli regressiya tahlillari orqali investitsion faollikka ta'sir etuvchi omillar baholandi hamda modelning ishonchliligi va statistik ahamiyati ekonometrik testlar yordamida tekshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining investitsion faolligi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishida muhim omil hisoblanadi. Banklar tomonidan real sektor, infratuzilma, innovatsion va strategik loyihalarni moliyalashtirish investitsion jarayonlarning uzluksizligini ta'minlaydi. Zamonaviy sharoitda globallashtirish, raqobatning kuchayishi va moliya bozorlarining liberallashtirish banklardan samarali investitsion siyosat yuritishni talab etmoqda. Shu bois, investitsion faollikni oshirishning ilmiy asoslangan metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Mazkur yondashuv bank resurslarini oqilona taqsimlash, risklarni boshqarish va daromadlilikni ta'minlash orqali iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi (1-rasm).




1-rasm. Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning metodologiyasi¹

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish metodologiyasi kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Resurs bazasini kengaytirish, investitsion portfelni diversifikatsiya qilish, risk-menejmentni kuchaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlaridir. Xalqaro tajribadan samarali foydalanish bank tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshiradi. Natijada bank aktivlari tarkibida investitsiyalar ulushi ortadi, real sektorni moliyalashtirish kengayadi va iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishi ta'minlanadi. Mazkur metodologiya banklarning strategik maqsadlariga erishishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklarining investitsion faolligi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va tarkibiy transformatsiyasida muhim o'rin tutadi. Banklar nafaqat moliyaviy vositachi, balki real sektorni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish va yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy investitsion drayver sifatida namoyon bo'ladi (2-rasm).

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.



2-rasm. Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish taksonomiyasi²

Shu bois, ularning investitsion faolligini oshirish tizimli yondashuvni, ya'ni institutsional, moliyaviy, risklarni boshqarish, innovatsion hamda tashkiliy omillarni kompleks tarzda takomillashtirishni talab etadi. Mazkur taksonomiya tijorat banklarining investitsion imkoniyatlarini kengaytirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlarni tizimli ravishda yoritib beradi.

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish ko'p qirrali va o'zaro bog'liq omillar tizimiga asoslanadi. Eng avvalo, institutsional muhitning barqarorligi va mukammal normativ-huquqiy baza banklar faoliyatining ishonchililigini ta'minlaydi. Moliyaviy-resurs omillari, xususan, yetarli kapital bazasi va uzoq muddatli resurslar mavjudligi investitsiya loyihalarini keng miqyosda moliyalashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, risklarni samarali boshqarish tizimi investitsiya faoliyatining xavfsizligini oshiradi va yo'qotishlarni minimallashtiradi.

Tijorat banklarida ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) mezonlarini kredit siyosatiga integratsiya qilish orqali "yashil investitsiyalar" ulushini 20 foizgacha oshirish mexanizmini joriy etish bank tizimining zamonaviy transformatsiya jarayonida muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yondashuv kreditlash jarayonini faqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida emas, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlik omillari bilan ham uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. ESG mezonlarining kredit siyosatiga kiritilishi natijasida banklarning kredit portfeli tarkibiy jihatdan sifatli o'zgaradi, ya'ni yuqori ekologik standartlarga ega, ijtimoiy jihatdan foydali va korporativ boshqaruvi shaffof bo'lgan loyihalar ustuvor moliyalashtiriladi. Bu esa kredit risklarining kamayishiga, resurslarning samarali taqsimlanishiga hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlarini tijorat banklarining kredit siyosatiga integratsiya qilish zamonaviy bank menejmentining eng muhim transformatsion yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv kredit qarorlarini faqat moliyaviy rentabellik asosida emas, balki ekologik barqarorlik, ijtimoiy ta'sir va korporativ boshqaruv sifati bilan kompleks baholashga asoslanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, ESG integratsiya modeli bank kredit portfelining tarkibiy sifatini tubdan o'zgartiradi. Xususan, yashil investitsiyalar ulushining 8–10% dan 18–20% gacha oshishi bank resurslarining ekologik barqaror loyihalarga yo'naltirilishini kuchaytiradi. Bu holat moliya sektorining "yashil iqtisodiyot"ga o'tishdagi asosiy drayverga aylanishini ta'minlaydi. Kredit skoring tizimiga ESG indikatorlarining 100% integratsiya qilinishi kredit risklarini baholash metodologiyasini kengaytiradi. Natijada ekologik va ijtimoiy risklar an'anaviy moliyaviy risklar bilan bir qatorda baholanadi, bu esa kredit portfelining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Past uglerodli loyihalar ulushining 12% dan 25–30% gacha oshishi iqtisodiyotning dekarbonizatsiya jarayonini tezlashtiradi. Bu esa bank sektorini nafaqat moliyaviy vositachi, balki ekologik transformatsiya agentiga aylantiradi (1-jadval).

² Muallif tomonidan tayyorlangan.



1-jadval

ESG asosida kredit siyosatini transformatsiya qilish mexanizmi³

Ko'rsatkich	Joriy holat	Taklif etilgan model (ESG integratsiya)	Miqdoriy o'zgarish	Kutiladigan natija
Yashil investitsiyalar ulushi	8–10%	18–20%	+10–12 foiz punkt	Barqaror moliyalashtirish keskin oshadi
Kredit ajratishda ESG ulushi	0% (mavjud emas)	100% kredit skoring tarkibiga kiritiladi	+100% integratsiya	Kredit qarorlarida ekologik va ijtimoiy omillar hisobga olinadi
Past uglerodli loyihalar ulushi	12%	25–30%	+13–18 foiz punkt	Dekarbonizatsiya jarayoni tezlashadi
ESG reytingga ega mijozlar ulushi	5–7%	40–50%	+35–43 foiz punkt	Kredit portfeli sifati oshadi
Risk darajasi (ESG bilan tuzatilgan)	100% (bazaviy)	75–85%	-15–25%	Kredit risklari kamayadi
Kapital taqsimoti samaradorligi	O'rtacha	Yuqori	+20–30% samaradorlik	Resurslar optimal yo'naltiriladi
Zaxira ajratish talabi	100%	85–90%	-10–15%	Risk asosidagi zaxiralash kuchayadi
"Yashil kredit" mahsulotlari ulushi	3–5%	15–20%	+12–15 foiz punkt	Yangi moliyaviy instrumentlar rivojlanadi
Investitsion jozibadorlik	O'rtacha	Yuqori	+1 daraja oshish	Xalqaro investorlar ishonchi ortadi
Bankning ESG reytingi	Past/O'rtacha	Yuqori	+2 pog'ona	Global moliya bozoriga integratsiya kuchayadi

ESG reytingga ega mijozlar ulushining 5–7% dan 40–50% gacha oshishi kreditlashda institutsional tanlovning o'zgarishini anglatadi. Bu esa korxonalarni ESG standartlariga moslashishga undaydi va umumiy iqtisodiy tizimda "yashil raqobat"ni shakllantiradi. Risk darajasining 15–25% ga kamayishi ESG yondashuvining riskni erta aniqlash va kamaytirishdagi samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kapital taqsimoti samaradorligining 20–30% ga oshishi bank resurslarining optimal ishlatilishini ta'minlaydi. "Yashil kredit" mahsulotlarining 3–5% dan 15–20% gacha kengayishi moliyaviy innovatsiyalar rivojlanishini tezlashtiradi va bank mahsulotlarining diversifikatsiyasini oshiradi.

Banklarda aktiv va passivlarni boshqarish (ALM) tizimini takomillashtirish orqali uzoq muddatli resurslar ulushini kamida 60 foizga yetkazish bank moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv aktiv va passivlar o'rtasidagi muddat nomutanosibligini kamaytirib, likvidlik va foiz stavkasi risklarini sezilarli darajada pasaytiradi. Uzoq muddatli resurslar bazasining kengayishi banklarga investitsion loyihalarni moliyalashtirishda barqaror va prognoz qilinadigan moliyaviy manbalarni shakllantirish imkonini beradi. Natijada real sektorni kreditlash hajmi oshadi, yirik infratuzilma va ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish kengayadi (2-jadval).

2-jadval

ALM tizimini takomillashtirish orqali resurslar tarkibini optimallashtirish modeli⁴

Ko'rsatkich	Joriy holat	Taklif etilgan holat (ALM kuchaytirilgan model)	Miqdoriy o'zgarish	Kutiladigan natija
Uzoq muddatli resurslar ulushi	35–40%	≥60%	+20–25 foiz punkt	Moliyalashtirish barqarorligi oshadi
Qisqa muddatli resurslar ulushi	60–65%	40% gacha	-20–25 foiz punkt	Likvidlik bosimi kamayadi
Aktiv-passiv muddatlar tafovuti (maturity gap)	Yuqori	Past / optimallashtirilgan	-40–50%	Foiz stavkasi riski kamayadi
Investitsion kreditlar ulushi	25–30%	45–50%	+20 foiz punkt	Uzoq muddatli loyihalar moliyalanadi
Resurslar diversifikatsiyasi indeksi	O'rtacha	Yuqori	+30%	Resurs bazasi barqarorlashadi

3 Muallif tomonidan tayyorlangan.

4 Muallif tomonidan tayyorlangan.



Ko'rsatkich	Joriy holat	Taklif etilgan holat (ALM kuchaytirilgan model)	Miqdoriy o'zgarish	Kutiladigan natija
Likvidlik risk darajasi	100% (bazaviy)	75–85%	-15–25%	Likvidlik xavfi pasayadi
Foiz stavkasi riski	Yuqori	O'rtacha / past	-20–30%	Daromadlar barqarorlashadi
ALM monitoring tezligi	Past (davriy)	Real-time / raqamli	+100% modernizatsiya	Qaror qabul qilish tezlashadi
Kapitalni rejalashtirish samaradorligi	O'rtacha	Yuqori	+25–35%	Kapital taqsimoti optimallashtiriladi
Investitsion loyihalarni moliyalashtirish salohiyati	Cheklangan	Kengaygan	+30–40%	Iqtisodiy o'sishga hissa oshadi

ALM tizimini kuchaytirish tijorat banklarida aktivlar va passivlar o'rtasidagi muddat, qiymat va likvidlik nomutanosibligini minimallashtirishga qaratilgan strategik boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Mazkur modelning asosiy maqsadi bank resurs bazasini barqarorlashtirish, likvidlik riskini kamaytirish hamda investitsion kreditlash salohiyatini oshirishdan iborat. Tahlil natijalariga ko'ra, uzoq muddatli resurslar ulushini 35–40% dan $\geq 60\%$ gacha oshirish banklarning investitsion faoliyatini sezilarli darajada kengaytiradi. Bu holat banklarni qisqa muddatli depozitlarga bog'liqlikdan chiqarib, uzoq muddatli iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini yaratadi. Natijada moliyaviy tizimning strukturaviy barqarorligi kuchayadi. Qisqa muddatli resurslar ulushining 60–65% dan 40% gacha kamayishi likvidlik bosimini pasaytiradi va aktiv-passiv nomutanosiblikni optimallashtiradi. Ayniqsa, maturity gap indikatorining 40–50% ga qisqarishi foiz stavkasi riskini sezilarli darajada kamaytiradi va bank daromadlarining prognoz qilinuvchanligini oshiradi. Eng muhim natija shundaki, ALM tizimining kuchaytirilishi kredit portfeli sifatini yaxshilaydi, risklarni kamaytiradi va kapitalning samarali ishlatilishini ta'minlaydi. Bu esa milliy iqtisodiyotda investitsion faollikni oshirish va moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Banklar tomonidan real sektor loyihalarini moliyalashtirish ulushini umumiy kredit portfelida kamida 40 foizga yetkazish iqtisodiyotning ishlab chiqarish va investitsion faolligini oshirishga qaratilgan muhim strategik yondashuv hisoblanadi. Ushbu mexanizm kredit resurslarining real iqtisodiyotga yo'naltirilishini kuchaytirib, moliyaviy sektor va ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlaydi. Real sektorni kreditlash ulushining oshirilishi sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish hajmini kengaytiradi. Natijada ishlab chiqarish quvvatlari ortadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi (3-jadval).

3-jadval
Real sektorni kreditlash ulushini oshirish orqali investitsion faollikni kuchaytirish modeli⁵

Ko'rsatkich	Joriy holat	Taklif etilgan holat	Miqdoriy o'zgarish	Kutiladigan natija
Real sektor loyihalarini moliyalashtirish ulushi	25–30%	$\geq 40\%$	+10–15 foiz punkt	Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektori kengayadi
Iste'mol kreditlari ulushi	35–40%	25–30%	-10 foiz punkt	Kredit portfeli tarkibi balanslashadi
Investitsion kreditlar ulushi	30–35%	45–50%	+15–20 foiz punkt	Uzoq muddatli iqtisodiy o'sish kuchayadi
Sanoat loyihalarini moliyalashtirish hajmi	O'rtacha	Yuqori	+30–40%	Ishlab chiqarish quvvati oshadi
Qishloq xo'jaligi kreditlari ulushi	10–12%	15–18%	+5–6 foiz punkt	Oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanadi
Kichik biznes va tadbirkorlik ulushi	20–25%	30–35%	+10 foiz punkt	Bandlik darajasi oshadi
Kredit portfeli diversifikatsiyasi	O'rtacha	Yuqori	+25–30%	Tizimli risklar kamayadi
Kreditlarning iqtisodiy multiplikatori	1.5–1.8	2.0–2.3	+0.5 koeffitsient	Investitsion samaradorlik oshadi
Bank aktivlarining real sektor bilan bog'liqligi	Cheklangan	Kuchli	+40% integratsiya	Moliyaviy resurslar real iqtisodiyotga yo'naltiriladi
Investitsion faollik indeksi	100 (bazaviy)	125–135	+25–35%	Makroiqtisodiy o'sish tezlashadi

5 Muallif tomonidan tayyorlangan.



Real sektorni kreditlash ulushini oshirish orqali investitsion faollikni kuchaytirish modeli bank kredit siyosatini real iqtisodiyot ehtiyojlariga yaqinlashtirishga qaratilgan muhim institutsional yondashuv hisoblanadi. Ushbu modelning asosiy mazmuni kredit resurslarini iste'mol yo'nalishidan ishlab chiqarish va investitsion sektorlar foydasiga qayta taqsimlash orqali iqtisodiy o'sishning sifatini yaxshilashdan iborat. Tahlil natijalariga ko'ra, real sektor loyihalarini moliyalashtirish ulushining 25–30% dan kamida 40% gacha oshirilishi iqtisodiyotning ishlab chiqarish bazasini kengaytiradi va kapitalning real sektor ichida aylanish tezligini oshiradi. Bu o'z navbatida iqtisodiy o'sishning barqaror va uzoq muddatli modelini shakllantiradi. Iste'mol kreditlari ulushining kamayishi kredit portfelining tarkibiy muvozanatini yaxshilaydi va resurslarning unumli yo'nalishlarga qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Investitsion kreditlar ulushining 45–50% gacha oshishi esa iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar hajmini sezilarli kengaytirib, ishlab chiqarish va xizmatlar sektorida modernizatsiya jarayonlarini tezlashtiradi. Umuman olganda, ushbu model bank kredit siyosatini qisqa muddatli iste'mol yo'nalishidan uzoq muddatli investitsion yo'nalishga o'tkazadi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi va barqaror makroiqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda sindikatlashgan kreditlash amaliyotini kengaytirish yirik kapital sig'imi yuqori bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Ushbu yondashuv bir nechta banklar o'rtasida kredit riskini taqsimlash orqali individual banklarning moliyaviy yukini kamaytiradi va yirik investitsion loyihalarga kirish imkoniyatini oshiradi. Sindikatlashgan kreditlash amaliyotining kengaytirilishi natijasida yirik loyihalarni moliyalashtirish hajmini kamida 30 foizga oshirish bank tizimining investitsion quvvatini sezilarli darajada mustahkamlaydi. Bu esa infratuzilma, energetika, sanoat va transport sohalaridagi yirik loyihalarning amalga oshirilishini tezlashtiradi (4-jadval).

4-jadval
Investitsion loyihalarni sindikatlashgan kreditlash orqali moliyalashtirish samaradorligi⁶

№	Ko'rsatkichlar	Hozirgi holat	Taklifdan keyin	O'zgarish
1	Yirik investitsion loyihalar moliyalashtirish hajmi (mlrd so'm)	10 000	13 000	+30%
2	Sindikat kreditlar ulushi (%)	25%	40%	+15 foiz punkt
3	Ishtirok etuvchi banklar soni (o'rtacha)	2–3 ta	4–6 ta	2 barobar oshish
4	Kredit risk darajasi	Yuqori	Past	Risk taqsimlanadi
5	Loyihani moliyalashtirish muddati	12 oy	8-9 oy	-25% tezlashish

Investitsion loyihalarni sindikatlashgan kreditlash orqali moliyalashtirish samaradorligi bank tizimida yirik kapital talab qiluvchi loyihalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan muhim yondashuv hisoblanadi. Ushbu modelning asosiy mohiyati bir nechta banklarning moliyaviy resurslari va risklarini birlashtirish orqali yirik investitsion loyihalarni samarali moliyalashtirishdan iborat. Tahlil natijalariga ko'ra, yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish hajmining 10 000 mlrd so'mdan 13 000 mlrd so'mga oshishi (30% o'sish) bank tizimining investitsion salohiyati sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Bu esa iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar hajmining oshishi va yirik infratuzilma loyihalarining tezroq amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Sindikat kreditlar ulushining 25% dan 40% gacha oshishi banklar o'rtasida hamkorlik mexanizmlarining kuchayganini va yirik loyihalarni moliyalashtirishda jamoaviy yondashuvning ustuvor ahamiyat kasb etayotganini bildiradi. Bu esa moliyaviy tizimda risklarni diversifikatsiya qilish darajasini oshiradi.

Standart kreditlar ulushini tasniflangan kreditlar umumiy hajmida kamida 5,0 foizli punktga oshirish bank kredit portfelining sifatini yaxshilash va investitsion risklarni kamaytirishga qaratilgan muhim institutsional yondashuv hisoblanadi. Ushbu taklif kredit portfelidagi muammoli aktivlar ulushini qisqartirish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Standart kreditlar ulushining oshishi kredit risklarining umumiy darajasini pasaytiradi, chunki yuqori sifatli kreditlar bank aktivlarining daromadlilik va qaytarilish ehtimolini oshiradi. Natijada kredit portfeli strukturasi yaxshilanadi va muammoli kreditlar (NPL) bosimi kamayadi (5-jadval).

6 Muallif tomonidan tayyorlangan.

5-jadval
Kredit portfeli sifatini oshirish bo'yicha⁷

Ko'rsatkich	Joriy holat	Taklif etilgan holat	Natija (ta'sir)
Standart kreditlar ulushi	70%	75%	+5 foiz punktga oshadi
Muammoli kreditlar ulushi	30%	25%	-5 foiz punktga kamayadi
Risk darajasi	100% (bazaviy)	80–85%	15–20% ga kamayadi
Zaxira ajratish hajmi	100% (bazaviy)	88–90%	10–12% ga kamayadi
Likvidlik darajasi	O'rtacha	Yuqori	Moliyaviy barqarorlik oshadi
Investitsion jozibadorlik	O'rtacha	Yuqori	Investorlar ishonchi ortadi
Kapital yetarliligi	Barqaror	Yaxshilanadi	Regulyativ ko'rsatkichlar oshadi

Kredit portfeli sifatini oshirishga qaratilgan ushbu model bank tizimida aktivlar sifati, risklarni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv hisoblanadi. Modelning asosiy maqsadi standart kreditlar ulushini oshirish va muammoli kreditlar (NPL) ulushini qisqartirish orqali bank aktivlarining sifat strukturasi yaxshilashdan iborat. Tahlil natijalariga ko'ra, standart kreditlar ulushining 70% dan 75% gacha oshishi kredit portfelining barqaror va qaytarilish ehtimoli yuqori bo'lgan aktivlar hisobiga kengayishini anglatadi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushining 30% dan 25% gacha kamayishi bank tizimidagi kredit risklarining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Risk darajasining 100% bazaviy ko'rsatkichdan 80–85% gacha tushishi kredit portfelining umumiy xavflilik darajasi kamayganini bildiradi. Bu holat banklarning kredit siyosatini yanada ehtiyotkor va samarali risk boshqaruviga asoslangan modelga o'tishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ushbu yondashuv bank kredit siyosatini barqarorlik va samaradorlikka yo'naltiradi, investitsion muhitni yaxshilaydi hamda iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning ishonchli va optimal taqsimlanishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, ushbu beshta ilmiy yangilik bank tizimini an'anaviy kreditlash modelidan barqaror, riskga asoslangan va investitsion yo'naltirilgan zamonaviy moliyaviy tizimga transformatsiya qilishga xizmat qiladi. Natijada banklarning kredit portfeli sifati oshadi, resurslar real sektor va "yashil" iqtisodiyotga samarali yo'naltiriladi, investitsion faollik kuchayadi hamda iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o'sishi ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish masalalari bugungi kunda bank tizimini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Banklarning investitsion faoliyatini tahlil qilish va prognozlashda qo'llanilayotgan metodologik vositalarni takomillashtirish investitsion qarorlar sifatini oshiradi hamda resurslardan samarali foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, raqamli bank xizmatlari, fintech yechimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi investitsion jarayonlarni tezlashtirib, ularning shaffofligi va samaradorligini oshirmoqda. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda investitsion faoliyatni baholash va boshqarishning zamonaviy metodologiyalari keng qo'llanilib, bu banklarning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedov M. «Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash va investitsion faolligini oshirish masalalari», «Iqtisod va moliya», Toshkent, №10, 2011.
2. Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidiligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol.uch. taqd. et. diss. avtoref. — Toshkent, 2020. — B. 30.
3. Dodiye F. Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'llari, «Iqtisod va moliya», Toshkent, 2014, №3
4. J.P.Bo'riev. Tijorat banklarining fond bozorida faolligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafi doktri dissertatsiyasi avtoreferati. — T: TMI, 2023. — 52 b.
5. Jumaev N.X., Karimov N.G'. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, sentyabr, 2011 yil.
6. Jo'raev I. O'zbekistonda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017 yil.
7. Kamilova I.X. Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini takomillashtirishning dolzarb masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2019 yil.

7 Muallif tomonidan tayyorlangan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>